



## BADIY TASVIR VOSITALARI TARJIMASI QIYINCHILIKLARI (UMAR XAYYOM RUBOIYLARI TARJIMALARI MISOLIDA)

**Ismoilova Madinaxon Maxamadjon qizi**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2-kurs magistranti*

Badiiy tasvir vostalari she'riyatning unga eng zeb beruvchi omillaridan biri hisoblanadi. Badiiy tasvir vositalarini o'ta noziklik va mahorat bilan qo'llash ham, shoirlardan katta ilm va so'z boyligi talab qiladi. Uni xuddi o'ziday, tasvir vositasini tarjimada yetkazib berish esa mo'jizaning o'zginasidir. Chunki ham asarni tarjima qilib, va tarjima tilida ekvivalent topib undagi qo'llanilgan san'atni yaratish, tarjimon qiyinchiliklarining eng kattasidan biri desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki bir o'qishda o'quvchi buni ilg'amalsligi mumkin, ammo uning zamirida esa katta mehnat yotadi. Asar qanchalik go'zal bo'lmasin, unda qanday san'at vositalari-yu, obrazlar qo'llanilgan bo'lmasin, tarjimon uni o'z ona tilisida kitobxonga yetkazib bera olmasa, u asarning qiymati va noyobligi o'z o'zidan yo'qoladi. Asar borki unda doim adabiyotning go'zal ifodalari qo'llaniladi. Shuning uchun har qanday asar tarjimasida bu borada tarjimonda katta mas'uliyat bo'ladi.

Tadqiqotimizda olib borilayotgan Umar Xayyom ruboiylari tarjimasi tahlilida adabiyotning bu yo'nalishini ko'rib, ruboiylarda badiiy san'atlar, undagi tasvir vositalarining qanday qo'llanilganligi, undagi qiyinchiliklarni o'rganishga harakat qilamiz.

Ul xusni falak, xurshidi tobondir- ishq

Ul qushki, go'zal chamanda sayrondir- ishq

Jamol Kamolga tegishli ushbu tarjima misrasida "Tashbeh" (o'xshatish) san'atidan mohirona foydalanilgan. Bu yerda asosiy mavzu- ishq, ya'ni ishqni shoir *falakka, xurshidga, go'zal chamanda sayraydigan qushga* qiyoslamoqda. Tasvir shunchalik nozik berilganki, xuddi bu tarjima emas, original misradek o'qiladi. Birgina tashbeh san'ati orqali ruboiy qayta jonlangandek go'yo. Shunching uchun ham adabiyotda badiiy san'atlar she'r yozishda va ularni tarjima qilishda muhim hisoblanadi.

Gul bo'lmasa bizga bog' aro xor ham bas,  
Nur yetmasa bizga yetmag'an nor ham bas.  
Gar bo'lmasa bizga xonaqo, xirqavu shayx,  
Noqis-u kaliso, bila zunnor ham bas

Ushbu tarjimada Jamol Kamol adabiyotda eng ko'p qo'llaniladigan san'atlardan biri-tazodni qo'llagan. Bu san'at nafaqat bir so'zda, balki radif qilib olingan so'zlarda ham ishlatrilgan. Tilshunoslikda bu antonim deb atalib, o'zaro so'zlarni qarama qarshi qo'yishdir.

"Gul" - "Xor", "Nur" - "Nor", "Xonaqo"- "Kaliso", "Noqis"- "Shayx" tazod san'atiga misol bo'la oladi. Ba'zi so'zlar mustaqil, ya'ni kontekstdan olganda, antonim

bo‘lmasa-da, asarda ma’nosi anglashilayotgan jihatiga ko‘ra, ularni qarama qarshi qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Keying misralarda ham Jamol Kamol tazoddan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin:

Bag‘rimga shamol ufursa -otash etding,  
O‘zimga chu suv oldim, uni xok etding.

Bu yerda ham “*Shamol*”- “*Otash*”, “*Chu suv*”, “*Xok*” so‘zlari o‘zaro asar ichida tazod san’atini yaratgan. Ammo bu so‘zlarni alohida olganda zidlantirib qo‘llay olmasligimiz mumkin.

G‘am behuda chekmagil, mudom shod yasha,  
Bedod yo‘lida aylama bedod, yasha.

Ushbu misrada tarjimon tajnis san’atidan mohirona foydalangan. Ya’ni shaklan bir xil, mazmunan har xil so‘zni qo‘llagan. Birinchi “*Bedod*” “*Adolatsizlik*”, “*Zulm*” ma’nolarini bildirsa, ikkinchisi, “*Bedod aylamoq*” noiloj, chorasiz qolmoq ma’nosini beradi. Shundan ko‘rinib turibdiki, tarjimon “*Adolatsizlik* yo‘lida noiloj qoma” degan ma’noni yetkazib bera olgan.

Bundan tashari, birnchi misrada tazod san’ati ham bor. “G‘am” va “Shod” so‘zlari tazod san’atini yaratgan.

May birla o‘tirki, mulki Mahmuddir bu,  
Chang rozini tingla, rozi Dovuddir bu.

Bu yerda tarjimon talmeh san’atini qo‘llagan, ya’ni, bunda shoir bir qahramonni (bu yerda may) gavdalantirishda uni otmishdagi mashhur adabiy, diniy yoki tarixiy qahramonlar bilan o‘xshatadi. “*Mulki Mahmud*” va “*Rozi Dovud*” bu yerda talmeh san’ati yaratilishiga asos bo‘lgan.

Yoshlik degan ul noma o‘qilmish-bitmish,  
Umrimning bahori qish tomon yuz tutmish.  
Bilmayman, o‘shal baxt qushi-yoshlik otlig‘,  
Boshimga qachon qo‘nib, tark etmish? ...

Ushbu tarjima Ergash Ochilovga mansub bo‘lib, ruboiyning deyarli har bir misrasida tazod san’ati qo‘llanilgan. Bu esa ruboiyga o‘zgacha ruh bag‘ishlagan.

“O‘qilmish”- “Bitmish”, “Bahor”- “Qish”, “Qo‘nib”- “Tark etmish” so‘zlardan tazod san’ati yasalgan. “*Qish*” va “*Bahor*” so‘zlaridan tashqari barchasi misra ichidagi tazod so‘zlar bo‘lib kelgan. Har bir so‘zga tarjimada qofiyadosh haqiqiy antonim so‘zlarni topish juda mushkul masala. Shuning uchun ruboiy ichidagina zid bo‘la oladigan so‘zlarni qo‘llash, tarjimon ishini birmuncha yengillashtiradi.

Ruboiyda aynan tazod san'atining ko‘p uchrashi kuzatiladi. Chunki ruboiy kichik janr bo‘lganligi uchun, shoir o‘zining kechinmalarini qisqa va lo‘nda ifoda qiladi. Tazod esa ayni shu qisqalik masalasini qarama qarshi so‘zlar bilan yorqin ifodalab bera oladi.

Lola yuzini har tong shabnam tutadi,  
Binafsha chamanda bo‘ynini xam tutadi.  
Yayraydi ko‘ngil g‘unchaga boqib rosti,  
Yoymas etagini u sira-jam tutadi.

Bu ruoiyda go‘zal tabiat va uning in’omi bo‘lmish gullar tasvirlangan. Tarjimon bu yerda bir necha san’atlardan mohironalik bilan foydalangan. “Lolaning yuzi”, binafshaning bo‘yni” tashxis ya’ni jonlantirish san’atidir. Gullarning a’zolari bo‘lmasa-da, ular shaklan insonning a’zolariga o‘xhatilmoqda. Va ular jonlantirilmoqda. Badiiy adabiyotda narsalar, hayvonlar, o‘simpliklar va boshqalarga insoniy xusussiyatlar ko‘chirilganda, ushbu san’at qo‘llaniladi. Bundan tashqari, tajnis san’ati ham ruboiyga o‘zgacha mazmun baxsh etgan. U ham radif, ham tajnis rolini bajargan. “Tutadi” so‘zi o‘zining birikmalari bilan kelib, har misrada omonim hosil qilmoqda. “Shabnam tutadi”, “Xam” tutadi, “Jam” tutadi.

Tarjimada badiiy tasvir vositalarini qayta yaratish she’riy tarjimaning eng murakkab muammolaridan biri ekanligi ma’lum. Ruboilyar tarjimasi tahlili tarjimonlar bu borada turli usullarga tayanib ish ko‘rganliklari – badiiy san’atlarni goh qayta yaratishning uddasidan chiqqan bo‘lsalar, goh so‘zmz-so‘z tarjimaga murojaat qilganliklari, goh esa kompensatsiya usulini qo‘llaganliklari, yani bir badiiy san’atning o‘rnini boshqasi bilan qoplaganliklaridan dalolat beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ochilov E. Forsiydan O‘zbekchaga she’riy tarjima muammolari (monografiya) ). – T: 2013. – 200 b.
2. Ochilov E. Umar Xayyom // Qadahdagi Sir (Ruboilyar) – T: 2018. – 102 b.
3. Ochilov E. Xayyom ruboilyarining o‘zbekcha talqinlari \\ Umar Xayyom. Tiriklik tilsimi. – T: O‘zbekiston, 2012. – 102 b.
4. Ochilov E. Tarjima nazariyasini va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – T: Sharqshunoslik instituti, 2012. – 300 b.
5. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 229 b.
6. Salomov G‘. Tarjimon mahorati. T: Fan, 1979. – 407 b.
7. Salomov G‘. Til va tarjima. T: Fan, 1966. – 290 b.
8. Umar Xayyom, Navro‘znomasi. T: Yangi asr avlod, 2019. – 173 b.
9. Jamol Kamol .333 ruboiy. – T: O‘zbekiston, 1991. – 75 b.
10. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. – T: O‘qituvchi, 1979. – 182 b.
11. Shomuhamedov Shoislom- Umar Xayyom //Ruboilyar//. - T: Sharq, 1985. – 455 b.